

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK FANIDAN MALAKA SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Ushbu spetsifikatsiyasi Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanidan o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarini attestatsiya malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni aks ettiradi.

I. Maqsad

Baholash jarayonida ishonchlilik, adolatlilik va shaffoflikni ta’minlash, talabgorlarning Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani bo‘yicha nazariy bilimlari, **amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini** kompleks baholash.

II. Me‘yoriy asoslar

1. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son Qarori.

2. Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli “Umumta’lim fanlarini kasbiy ta’lim yo‘nalishiga mos tanlov fanlari orqali o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi” qo‘shma qaroriga muvofiq joriy etilgan.

III. Baholash qamrovi

1. Harbiy xizmatning huquqiy asoslari.
2. Umumharbiy nizomlar.
3. Otish tayyorgarligi. O‘qotar qurollarining vazifasi, tuzilishi, ishlash prinsipi va jangovar xususiyatlari.
4. Harbiy ish asoslari. Umumqo‘shin jangi asoslari.
5. Fuqaro muhofazasi. Hayot xavfsizligi asoslari.
6. Tibbiy bilim asoslari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

Mazmun soha	Kichik mazmun soha	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK				
Harbiy xizmatning huquqiy asoslari	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Vatan himoyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining mudofaa doktrinasini. O'zbekiston Respublikasining "Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tashkil etilishi.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan huquq va majburiyatlarni biladi, farqlaydi hamda hayotiy vaziyatlarda ularni tahlil qiladi. O'zbekiston Respublikasining mudofaa doktrinasini, "Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tashkil etilishi to'g'risida"gi qonunlarini farqlaydi va tahlil qiladi.	18 %	7
Umumharbiy Nizomlar	O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat Nizomi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizomiy Nizomi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Saf Nizomi	O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat Nizomi, Intizomiy Nizomi, Garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomi, Saf Nizomilarini o'zaro farqlaydi, real holatlarda to'g'ri qo'llaydi va tahlil qiladi.	23%	9
Otish tayyorgarligi. O'qotar qurollarining vazifasi, tuzilishi, ishlash prinsipi va jangovar xususiyatlari	O'qotar qurollarning vazifasi, tuzilishi, ishlash prinsipi va jangovar xususiyatlari, Kalashnikov avtomatining vazifasi, konstruktiv va ballistik ko'rsatkichlari, umumiy tuzilishi, Otish hodisasi va uning davrlari.	O'qotar qurollarning vazifasi, tuzilishi, ishlash prinsipi va jangovar xususiyatlarini, otish hodisasi va uning davrlarini bilgan holda ularni o'zaro farqlaydi, taqqoslaydi va tahlil qiladi.	20%	8

Harbiy ish asoslari. Umumqo‘shin jangi asoslari	Jang haqida tushuncha. Jangovar guruh tarkibi, qurollanishi va jangovar imkoniyatlari.	Zamonaviy umumqo‘shin jangi, jangovar guruh tarkibi, qurollanishi va jangovar imkoniyatlari haqida bilgan holda ularni o‘zaro farqlaydi, taqqoslaydi va tahlil qiladi.	12%	5
Fuqaro muhofazasi. Hayot xavfsizligi asoslari	Favqulodda vaziyat tushunchasi. Yadroviy, kimyoviy va bakteriologik (biologik) qurollar	Favqulodda vaziyatlarni bilish va hayotiy vaziyatlarda ularni tahlil qilish, yadroviy, kimyoviy, bakteriologik (biologik) qurollarning turlarini va ulardan foydalanish usullarini bilgan holda ularni farqlaydi, real holatlarda to‘g‘ri qo‘llaydi va imkoniyatlarini tahlil qiladi.	15 %	6
Tibbiy bilim asoslari	Jarohat to‘g‘risida tushuncha, jarohatlarning turlari. Qon ketishi turlari, Suyak sinishi to‘g‘risida tushuncha va uning belgilari	Jarohat va ularning turlari, qon ketishi turlari, suyak sinishi va uning belgilarini hamda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish usullari bilish, ularni farqlash, real holatlarda to‘g‘ri qo‘llash, berilgan holatni tahlil qilish	12 %	5
Jami	40			

V. Baholanadigan kognitiv ko‘nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotni, atama va qoidalarini eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan yondasha olish	25%
2.	Qo‘llash	O‘zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda qo‘llay olish	50%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan matndagi fakt, dalil va me’yoriy holatlarni taqqoslash, tahlil qilish, matn mazmuniga muvofiq taxmin qilish, matn xronologiyasini aniqlash, xulosa(lar) chiqara olish	25%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To‘rtta variantdan bittasi to‘g‘ri bo‘lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to‘g‘rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test

4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test
----	----	--

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test variantini yechish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha (umumiy vaqtning 15 %i miqdorida) vaqt qo'shib beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi. Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida" 2002-yil 12-dekabrda 436-II-son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi "Mudofaa to'g'risida" 1992-yil 3-iyuldagi 641-XII-son Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi "Mudofaa Doktrinasi to'g'risida" 2018-yil 9-yanvardagi 458-son Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurolli Kuchlarining umumharbiy nizomlari to'g'risida" 1996-yil 9-oktabrdagi PF-1571-son Farmoni.
6. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik. 10-sinf uchun darslik. A.Y.Sotvoldiyev va boshq. Toshkent, Respublika ta'lim markazi, 2022-yil.
7. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik 11-sinf uchun darslik. Sh.Ubaydullayev va boshq. Toshkent, Ilm Ziya, 2018-yil
8. Umumiy taktika. Toshkent, 2004-yil.

9. Quruqlikdagi qo‘shinlarning Jangovar nizomi. Toshkent, 2004-yil.
10. Quruqlikdagi qo‘shinlarda otish qurollaridan, jangovar mashina va tanklardan o‘q otish kursi. Toshkent, 2004-yil.
11. Otish tayyorgarligi. B.B.Gofurov va boshq. Toshkent, 2004-yil.
12. Yosh askarlar uchun boshlang‘ich umumqo‘shin harbiy tayyorgarlik. B.B.Gofurov. Toshkent, 2004-yil
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta’lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2023-yil 8-noyabrdagi 591-son Qarori.
- 14 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida” 2019-yil 12-sentabrdagi PQ-4447-son Qarori.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-son Qarori.
16. O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to‘g‘risida” 2003-yil 25-apreldagi 478-II-son Qonuni.
17. O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasi to‘g‘risida” 2023-yil 13-sentabrdagi O‘RQ-868-son Qonuni.
18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PF-23-son Farmoni.